

O'qitiladigan fanlar

Bakalavriat bosqichida

Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1. Ingliz tili	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Chet tillar bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar"iga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'Imagan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari uch yillik tahsillari nihoyasida o'rgangan chet tili bo'yicha V1+ darajani egallashlari lozim.
2. Amaliy ingliz tili, 4 bosqich	Vazirlar Maxkamasining "Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar" ga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'Imagan fakultetlari magistratura boskichi bitiruvchilari ikki yillik tahsillari nihoyasida ingliz tili buyicha V2 darajasini egallash va mustahkamlashlari lozim. Ushbu amaliy chet tili kursi shu tilda erkin tushunadigan va o'z fikrini ifodalay oladigan, simpozium va konferensiyalarda ishtirok etadigan, ish qog'ozlarini yozadigan, maqolalarni tahrir qiladigan, texnika va jahon iqtisodiyoti bo'yicha xar tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashni ta'minlashi zarur.

Magistratura bosqichida

Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
Amaliy ingliz tili,	Ushbu amaliy chet tili kursi shu tilda erkin tushunadigan va o'z fikrini ifodalay oladigan, tayyorgarlik darajasida prezentatsiya qilaoladigan, ish qog'ozlarini bemalol yozadigan, ilmiy maqolalarni tahrir qiladigan, texnika va jahon iqtisodiyoti bo'yicha xar tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashni ta'minlashi zarur. Ushbu dastur magistratura bitiruvchilari uchun o'zlarini kelajakda tanlaydigan kasbi bo'yicha chet tilini mukammal egallash uchun ulkan asos yaratib beradi. Shu bilan birga ushbu amaliy kurs chet tilini o'quv dasturida ko'zda tutilgan boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitishni e'tiborga olgan holda amaliy, umum-ta'lim, kasb-mahorat maqsadlariga kompleks yondishishni nazarda tutadi. Institutda o'qitiladigan amaliy chet tili kursining asosiy maqsadlaridan biri shundan iboratki, ushbu dasturning mazmuni bitiruvchining professional (mutaxassislik) mahorati mazmuniga, ya'ni o'quv rejasi mazmuniga mos kelishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ushbu dasturni yaratishda mualliflar tegishli kafedralar va kurslar bo'yicha o'quv dasturiga kiritilgan amaliy mashg'ulotlarni maksimal ravishda e'tiborga olishga harakat qiladilar.